



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4

Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

Road

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 253 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....	71
Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi	
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution.....	76
Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar.....	89
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	95
Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich	
"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish"	101
Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.	
Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan	105
To'irova Hamida Umedovna	
Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli	114
Shakhlo Davirova	
2020–2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi	120
Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek	
O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo'nalishlari	125
Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi	
Sug'urta tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'siri	133
Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahridinxon Bahroil o'g'li	
Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security.....	138
Mamayusuf Abdusamatov	
Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovasion yo'nalishlari	143
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich	
Повышение конкурентоспособности экологического туризма Узбекистана путём развития всесезонных горных туристических центров.....	150
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish	157
Safarov Alisher Ibrohim o'g'li	



Oliy ta'lim tizimini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholashning kompleks metodologiyasi.....	163
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	
Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari	167
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innovatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlari	173
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna	
Результаты долгосрочного прогнозирования и стратегического анализа эффективной организации современного управления жилищным фондом.....	178
Бердиева Дилфуза Ахатовна	
Improving long-term assets accounting and auditing	184
Gulboy Yusupov	
Davlat budjeti va xususiy sektor ishtirokida oliy ta'limni moliyalashtirishning optimal modeli.....	189
Bozorov Alisher Ro'zimurodovich	
Xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq islohotlari va raqamli texnologiyalar: O'zbekiston tajribasi va xalqaro yondashuvlar.....	193
Choriev Makhmayokub, Karimov Mamurbek, Xamrayev Olimjon, Urazov Mansur	
Bank aksiyalarining bozordagi narx dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar	200
Nomozov Samandar Shuxrat o'g'li	
Sanoatda rivojlanish kafolati: moliyaviy boshqaruvni raqamli transformatsiya orqali avtomatlashtirish.....	206
To'qliyev Abdirauf Bahodir o'g'li	
Inson kapitalini rivojlantirishning jamiyat farovonligi, aholi daromadlariga ta'siri.....	214
Bozorova Saxobat Abdujapparovna	
Анализ конкурентной среды: методология, примеры и этапы процесса.....	219
Садикова Раъно Абдуллаевна	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarning nazariy asoslari va ular bilan ishlash mexanizmining zaruriyati	225
Salixova G.J	
Iqtisodiyotda energiya xavfsizligiga erishishning xorij tajribasi.....	230
Samandarov Og'abek Alisher o'g'li	
Measuring methodologies of influence of the esg factors	235
Tolipova Feruza Alisherovna	
Совершенствование налогового администрирования в условиях экологически устойчивого развития	240
Омонов Отажон Журакулович	
Moliyaviy vositalar asosida erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish	249
Quziev Ravshan Ramazanovich	



MOLIYAVIY VOSITALAR ASOSIDA ERKIN IQTISODIY ZONALARNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Quziev Ravshan Ramazanovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi "Moliya" kafedrası dotsenti., PhD.

Annotatsiya: Ushbu maqolada erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali rivojlantirishning konseptual asoslari tahlil qilingan. Zamonaviy moliyaviy instrumentlarning EIZlar samaradorligiga ta'siri, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida EIZlar uchun mos moliyaviy mexanizmlarni ishlab chiqish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: erkin iqtisodiy zona, moliyaviy vositalar, investitsiya muhit, soliq imtiyozlari, moliyaviy mexanizmlar, barqaror rivojlanish, iqtisodiy islohotlar.

Abstract: This article analyzes the conceptual foundations for enhancing the performance of free economic zones (FEZs) through financial instruments. It explores the impact of modern financial tools on FEZ efficiency, identifies current challenges, and proposes solutions. The study also offers policy recommendations for developing effective financial mechanisms based on international best practices.

Key words: free economic zone, financial instruments, investment climate, tax incentives, financial mechanisms, sustainable development, economic reforms.

Аннотация: В статье рассмотрены концептуальные основы развития деятельности свободных экономических зон (СЭЗ) с использованием финансовых инструментов. Проанализировано влияние современных финансовых механизмов на эффективность СЭЗ, выявлены существующие проблемы и предложены пути их решения. Также даны предложения по разработке эффективных финансовых моделей с учетом международного опыта.

Ключевые слова: свободная экономическая зона, финансовые инструменты, инвестиционный климат, налоговые льготы, финансовые механизмы, устойчивое развитие, экономические реформы.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichga o'tishi, xususan, hududiy iqtisodiyotni faollashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va eksport salohiyatini kengaytirish borasidagi strategik yondashuvlar davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) faoliyatini kuchaytirish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, sanoatni modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari kengaymoqda.

Erkin iqtisodiy zonalar - bu alohida imtiyozli tartibga ega bo'lgan hududiy tuzilmalardir, ular ichki va tashqi sarmoyadorlar uchun qulay muhit yaratadi, ishlab chiqarish, eksport va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayni vaqtda EIZlarning iqtisodiy samaradorligi nafaqat ularning yuridik maqomiga, balki ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining qamroviga va samaradorligiga ham bevosita bog'liqdir.

Bugungi global iqtisodiy sharoitda EIZlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar doirasida moliyaviy vositalar, xususan, soliq imtiyozlari, subsidiyalar, kredit va grant dasturlari, investitsiya kafolatlari va kapital bozorlaridagi moliyaviy instrumentlar alohida o'rin tutadi. Shu bois, erkin iqtisodiy zonalarining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashda moliyaviy vositalarning konseptual asoslarini chuqur tahlil qilish, ularni milliy kontekstda takomillashtirish va xalqaro tajribalar bilan uyg'unlashtirish dolzarb ilmiy va amaliy vazifalardan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) bugungi kunda jahon iqtisodiy rivojlanishining ajralmas qismi bo'lib, mintaqaviy iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda samarali mexanizm sifatida keng qo'llaniladi. Ularning asosiy maqsadi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksport hajmini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy faollikni oshirishdan iborat. Erkin iqtisodiy zonalar iqtisodiyoti asosan xalqaro savdo-sotiq erkinligi va investitsiyalar oqimining oshishi bilan bog'liq bo'lib, ular davlatlarning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish strategiyalarining ajralmas qismi



hisoblanadi. Ko'plab tadqiqotlar EIZlarning iqtisodiyotga bo'lgan ta'sirini o'rganib, ularning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga qo'shadigan hissasi haqida xulosalar bergan. Ushbu adabiyotlar sharhi erkin iqtisodiy zonalarning mintaqaviy iqtisodiyotga ta'sirini nazariy va amaliy jihatdan o'rganishga bag'ishlangan turli manbalarning tahlilini o'z ichiga oladi.

Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) iqtisodiy rivojlanish jarayonida muhim rol o'ynab, bir qancha nazariy yondashuvlar asosida tashkil etilgan. EIZlarning asosiy nazariy tamoyillari, asosan, rivojlanish nazariyalari bilan chambarchas bog'liq. Ularning rivojlanish nazariyasi bo'yicha turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ular mamlakatlar iqtisodiyoti va mintaqaviy rivojlanishining turli bosqichlarida qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qiladi.

Erkin iqtisodiy zonalar paydo bo'lishining boshqa bir nazariy asosini G'arbiy Evropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida ishlab chiqilgan iqtisodiy rivojlanish nazariyalarida ko'rish mumkin. Ushbu nazariyalar agrar-industrial rivojlanish modeliga asoslangan bo'lib, bu modelda agrar rivojlanish sanoat rivoji bilan uyg'unlikda amalga oshiriladi (Sassen, 2014). Sanoat rivoji hududiy iqtisodiy tizimlarning muvozanatli rivojlanishiga olib keladi. Bunday yondashuvlar ko'plab mamlakatlarda, xususan, Osiyo va Afrikadagi iqtisodiy islohotlar jarayonida muvaffaqiyatli tatbiq etilgan.

Xyus va Van der Ven (2018) tomonidan olib borilgan tadqiqotda agrar-industrial rivojlanish modelining amaliy tatbiqi Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari misolida o'rganilgan. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, EIZlar ushbu mintaqada sanoat rivojini jadallashtirgan va agrar rivojlanishni ham qo'llab-quvvatlagan. Ushbu nazariy yondashuvga ko'ra, sanoat va qishloq xo'jaligi sektorlari o'rtasidagi uyg'un rivojlanish orqali butun iqtisodiy tizimning barqarorligini ta'minlash mumkin.

Krugman (1991) tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy rivojlanish nazariyasining muhim tamoyillaridan biri "iqtisodiy o'sish" modelidir. Ushbu modelga ko'ra, iqtisodiy faoliyat ma'lum bir hududga jamlanganda, u hududning umumiy iqtisodiy salohiyati oshadi, bu esa butun mintaqaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday zonalarning rivojlanishi iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlaydi va iqtisodiy faoliyatlarni geografik jihatdan kontsentratsiyalash orqali samaradorlikni oshiradi.

Misol sifatida, Mendez va Xernandez (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqot Meksikada tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalar misolida Krugman modelining qo'llanilishini ko'rsatadi. Tadqiqotda EIZlarning butun mintaqadagi iqtisodiy faollikka bo'lgan ta'siri tahlil qilinib, iqtisodiy faoliyatni jamlash orqali mahalliy ishlab chiqarish va eksport hajmi oshgani aniqlangan. Bu jarayon mamlakatning umumiy iqtisodiy o'sishiga ham katta ta'sir ko'rsatgan.

Porterning (1990) raqobatbardoshlik nazariyasiga ko'ra, erkin iqtisodiy zonalar mamlakatlar uchun milliy iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishning samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, raqobatbardoshlikni oshirish uchun iqtisodiy faoliyatni ma'lum bir hududda jamlash va innovatsion salohiyatni kuchaytirish zarur. Shu tariqa, erkin iqtisodiy zonalar iqtisodiy faoliyatni bir joyga yig'ib, iqtisodiyotning turli sohalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu jarayon mintaqaviy iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

EIZlarni tashkil etishning asosiy maqsadlari, ko'p hollarda, turli davlatlarda bir xil bo'ladi: ushbu hududlar va ularning atroflarida aholini ish bilan ta'minlash; ichki bozorda faoliyat ko'rsatayotgan mahalliy korxonalarga zarar yetkazmasdan, EIZlarda eksportga yo'naltirilgan yangi ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish. Bunga qo'shimcha ravishda, iqtisodiy jihatdan rivojlanishdan ortda qolayotgan hududlarni qo'llab-quvvatlash, zamonaviy "nou-xau"larni joriy etish, eskirgan texnologiyalarni yangilash, mahalliy mutaxassislar va ishchilarga yangi mehnat uslublarini o'rgatish hamda tayyor mahsulot ishlab chiqarishda mahalliy xomashyolardan samarali foydalanish maqsadlari ham ko'zda tutiladi.

1-jadval. Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilish maqsadlari.

№	Maqsad turlari	Tavsif
1	Iqtisodiy maqsadlar	Tashqi iqtisodiy faoliyatni jadallashtirish va kengaytirish;
		Iqtisodiyotga ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilish;
		Mahalliy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini va iqtisodiy samaradorligini oshirish;
		Eksport hajmini va importni qisqartiruvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni har bir hududda rivojlantirish;
		Milliy iqtisodiyotga keladigan valyuta tushumlarini oshirish.



2	Ijtimoiy maqsadlar	Yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini oshirish;
		Kadrlar, muhandislar, xo'jalikda ishlovchilar va boshqaruv sohasidagi xodimlarni jahon standartlari darajasida tayyorlash va o'qitish;
		Milliy bozorni yuqori sifatli sanoat va iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlash;
		Aholining turmush darajasini va farovonligini oshirish;
		Qoloq hududlarning rivojlanishini, hududda yetishmayotgan resurslarni markazlashtirish orqali tezlashtirish.
3	Ilmiy-texnik maqsadlar	Zamonaviy xorijiy va mahalliy texnologiyalardan faol foydalanish;
		Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarning natijalarini amaliyotda qo'llashni tezlashtirish;
		Dolzarb yo'nalishlarda ilmiy-texnik soha uchun xorijiy mutaxassislarni jalb qilish;
		Ilmiy-texnik markazlar va venchur kompaniyalarning tajribalarini, shuningdek, ilmiy-tadqiqot yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish;
		Ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanishni oshirish.

Manba: muallif ishlanmasi

Zamonaviy dunyo tajribasida erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) tasnifiga turli xil yondashuvlar mavjud. Dunyo amaliyotida EIZlarni tashkil etishda ikki asosiy konseptual yondashuv qo'llaniladi, ya'ni tashkil etish usuliga qarab, quyidagi ikki turdagi hududlar ajratiladi:


Hududiy EIZlar.

Funksional (nuqtali) EIZlar.

Hududiy EIZlar – belgilangan ma'lum bir hududda joylashgan bo'lib, u yerda faoliyat yurituvchi barcha rezidentlar, ularning faoliyat turlaridan qat'i nazar, iqtisodiy imtiyozlar va afzalliklardan foydalanadi. Masalan, Xitoydagi EIZlar yoki Braziliyadagi "Manaus" hududi bunga misol bo'la oladi. Shuningdek, rivojlangan davlatlardagi ko'plab eksport ishlab chiqarish hududlari ham ushbu yondashuvning amaliy misollari sifatida keltirilishi mumkin.

Funksional (nuqtali) EIZlar – bu yerda firma o'zining qaysi hududda joylashganligidan qat'i nazar, ma'lum turdagi tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan qo'llaniladigan imtiyozli rejimlardan foydalanishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, imtiyozlar faqat muayyan faoliyat turlariga tegishli bo'ladi, ularning geografik joylashuviga bog'liq bo'lmaydi. Masalan, bunday EIZlar qatoriga Karib dengizi hududidagi alohida korxonalardan iborat offshor markazlari, turistik zonalar, Meksikadagi Makiladoras korxonalari va "duty-free" do'konlar kiradi. Shu sababli, bunday EIZlar "nuqtali" hududlar deb ataladi.

EIZlarni tashkil etishda hududiy va funksional yondashuvlarning turli ko'rinishlari mavjud bo'lib, ularni quyidagi 1-rasm orqali ko'rish mumkin.



1-rasm. EIZlarni tashkil etishning hududiy va funksional yondashuvlari.

Manba: muallif ishlanmasi



Hududiy yondashuv asosida EIZlarni tashkil etishning bosh maqsadi - ma'lum bir hudud yoki mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi muammolarni hal qilishdan iboratdir. Bu jarayonda ishtirok etuvchi va berilgan imtiyozlardan foydalanuvchi subyektlar sifatida EIZ hududida joylashgan korxonalar va tashkilotlar namoyon bo'ladi. Ushbu korxonalar hududdagi iqtisodiy o'sish va rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi va maxsus imtiyozli sharoitlardan foydalanadi.

Funksional yondashuv orqali EIZlarni tashkil etishdan asosiy maqsad esa iqtisodiyotning tarkibini yangilash va muayyan ustuvor tarmoqlarni rivojlantirishdir. Bu usulda imtiyozlar geografik joylashuvga bog'liq emas, balki ma'lum turdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan korxona va tashkilotlarga taqdim etiladi. Bunda kompaniya yoki tashkilot qayerda faoliyat yuritmasin, belgilangan soha yoki yo'nalish bo'yicha imtiyozli rejimlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu yo'l bilan iqtisodiyotning maqsadli sohalarini qo'llab-quvvatlash va innovatsion rivojlanishga erishish ko'zda tutiladi.

Har ikkala yondashuv ham o'ziga xos afzalliklari bilan ajralib turadi. Hududiy yondashuv, mintaqaviy iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan bo'lsa, funksional yondashuv esa butun mamlakat miqyosida ayrim sohalarni rag'batlantirishni nazarda tutadi.

TAKLIFLAR VA XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, yangi ish o'rinlarini yaratish va eksport salohiyatini oshirishda strategik vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq, mavjud moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalarining takomillashmaganligi, ularning samarali ishlash mexanizmlarining cheklangani EIZlarning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda. Shu bois, quyidagi taklif va xulosalar ilgari suriladi:

Moliyaviy vositalar tizimini diversifikatsiyalash lozim. EIZlar uchun soliq va bojxona imtiyozlari bilan cheklanib qolmasdan, zamonaviy moliyaviy instrumentlar — subsidiyalashgan kreditlar, grantlar, sug'urta mexanizmlari, kafillik fondlari va fond bozoridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Hududlar kesimida moliyaviy qo'llab-quvvatlash strategiyasi ishlab chiqilishi kerak. Har bir EIZning ixtisoslashuvi, infratuzilmasi va investitsiyaviy profili asosida individual moliyaviy qo'llab-quvvatlash paketlari ishlab chiqilishi, bu orqali ularning raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

Moliyaviy infratuzilmani mustahkamlash va xalqaro standartlarga moslashtirish zarur. EIZlar faoliyatida xususiy moliyaviy institutlar, venchur kapital fondlari va lizing kompaniyalarining ishtirokini rag'batlantirish orqali moliyaviy xizmatlar ekotizimini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli moliyaviy yechimlarni joriy etish. EIZlarda investitsiya loyihalarini onlayn moliyalashtirish platformalari, elektron grant va subsidiya tizimlari, shaffof monitoring mexanizmlari orqali boshqarish samaradorligini oshirish mumkin.

Monitoring va tahlil tizimini takomillashtirish lozim. EIZlar faoliyatini moliyaviy jihatdan baholash uchun zamonaviy indikatorlar tizimi (kapital rentabelligi, fiskal samaradorlik, innovatsion faoliyat darajasi) asosida muntazam monitoring olib borilishi zarur.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi EIZlar faoliyatining moliyaviy asoslarini kuchaytiradi, investitsiya muhitini sezilarli darajada yaxshilaydi va milliy iqtisodiyotda innovatsion o'sishni rag'batlantiradi. Shuningdek, EIZlar orqali mintaqaviy iqtisodiy tengsizliklarni kamaytirish va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlari yaratiladi. Moliyaviy vositalarning konseptual asoslarini xalqaro amaliyot asosida takomillashtirish esa EIZlarni O'zbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy strategiyasida barqaror tayanchga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Farole T. Special Economic Zones in Africa: Comparing Performance and Learning from Global Experiences. – Washington, DC: World Bank, 2011. – 248 p.
2. Krugman P. Geography and Trade. – Cambridge, MA: MIT Press, 1991. – 142 p.
3. Mendez A., Hernandez J. The Impact of Special Economic Zones on Regional Development: Evidence from Mexico // Journal of Economic Development Studies. – 2020. – Vol. 12(3). – P. 45–62.
4. Porter M. E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 896 p.
5. Sassen S. Expulsions: Brutality and Complexity in the Global Economy. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2014. – 320 p.
6. Hughes A., Van der Ven C. Agricultural-industrial linkages and development strategies in Southeast Asia // Asian Development Policy Review. – 2018. – Vol. 6(2). – P. 87–104.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
